

2/2025,  
mart-  
aprel  
(№ 00076)



## TA'LIMDA SIFAT SAMARADORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Farmonov Dilshod Po'latovich**

*Qarshi xalqaro universiteti katta o'qituvchisi*

Email: [dilshod.farmonov@gmail.com](mailto:dilshod.farmonov@gmail.com)

Orcid: [0009-0005-1553-5088](https://orcid.org/0009-0005-1553-5088)

**Nigmatov Izzat Shovkat o'g'li**

*Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi*

Email: [izzatneematov@gmail.com](mailto:izzatneematov@gmail.com)

DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss2/660](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss2/660)

### Аннотация

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lgan, yoshlarni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zarurati, muhim jihatlari, mashg'ulot va topshiriqlarni bola psixo-fiziologik xususiyatlariga moslab tayyorlashning ahamiyati haqida so'z boradi. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlab, metakognitiv qobiliyatlar asosida darslarni va fanlarga oid ma'lumotlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari haqida tahliliy natijalar ham muhokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** fikrlash qobiliyati, bola, metakognitiv, psixo-fiziologik holatlar, xotira.

### ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

**Фармонов Дильшод Пулатович**

*Преподаватель Каршинского международного университета*

**Нигматов Изат Шовкатович**

*Преподаватель школы творчества имени Абдуллы Орипова*

### Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные на сегодняшний день вопросы необходимости развития мыслительных способностей у молодежи, важные аспекты этого процесса, а также значимость подготовки занятий и заданий с учетом психофизиологических особенностей детей. Обсуждаются аналитические результаты успехов учащихся в самостоятельном и творческом мышлении, а также в усвоении учебного материала и предметных знаний на основе метакогнитивных способностей.

**Ключевые слова:** мыслительные способности, ребенок, метакогнитивные способности, психофизиологические состояния, память.

### FACTORS AFFECTING THE IMPROVEMENT OF QUALITY AND EFFICIENCY IN EDUCATION

**Dilshod Farmonov**

*Senior Lecturer at Karshi International University*

**Izzat Nigmatov**

*Teacher at Abdulla Oripov Creative School*

### **Abstract**

This article discusses the current need to develop thinking skills in young people, important aspects of this process, and the significance of preparing lessons and tasks in accordance with the psycho-physiological characteristics of children. Analytical results of students' success in independent and creative thinking, as well as in mastering educational material and subject knowledge based on metacognitive abilities, are also examined.

**Keywords:** thinking skills, child, metacognitive abilities, psycho-physiological states, memory.

### **KIRISH**

Jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda barcha sohalarda barqaror o'sishni ta'minlash uchun kadrlarga bo'lgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Bugungi kun mutaxassislari o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lishi bilan birgalikda xorijiy tillarni ham bilishlari davr talabi bo'lmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-152-son Farmonida quyidagi vazifalar belgilangan:

a) maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida:

kichik va o'rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga;

katta va maktabga tayyorlov guruhlardagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish;

b) 2026/2027 o'quv yilidan boshlab:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyotini joriy qilish;

maktabga tayyorlov guruhlarni tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik haqida elektron sertifikat berishni yo'lga qo'yish to'g'risidagi takliflari ma'qullanishi belgilangan.[1]

Zamonga mos mutaxassislarni tayyorlash uchun kichik yoshidan boshlab tarbiyalash uchun Prezident Farmoni imzolandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarda fikrlash qobiliyatlarini, kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish zamonaviy ta'limda dolzarb masala bo'lib turibdi. Farmon ijrosini ta'minlashda bolalardagi ko'nikmalarni rivojlantirish turli xil pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bolalar va o'quvchilarda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq kognitiv jarayonlar va bosqichlarni aniqlab olish zarurati seziladi. Tadqiqot obyekti sifatida 5-6 yoshli bolalar hamda maktab o'quvchilarining xotira, e'tibor, idrok va ijro funksiyalari o'rganiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Jan Piaget o'zining bolalar psixologiyasi tadqiqotlarida kognitiv rivojlanish nazariyasi ko'pincha fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Piagetga ko'ra bolalar turli yoshda qanday rivojlanishini va har bir bosqichlar ularning fikrlash qobiliyatiga qanday ta'sir qilishini tadqiqotlari natijasida aniqlagan.[2]

Bolalarning metakognitiv ko'nikmalari, ya'ni o'z tafakkurini aks ettirish va tartibga solish qobiliyati fikrlashni rivojlantirish uchun muhimdir. Har bir yosh guruhidagi bolalarga

qo'llaniladigan metakognitiv strategiyalar ularda idrok ko'nikmalarni ta'lim jarayonida qanday rivojlantirish mumkinligi tahlil qilinadi.

Muammolarni mustaqil hal qilishda bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ular bilan bajariladigan vazifa va topshiriqlarning asosiy maqsadi bo'ladi. Bu jarayonda bolalarning har xil turdagi muammolarga qanday yondashishlari va yechim topishlari muhimdir. Ularning moslashuvchan fikrlashlari va muqobil yechimlari ta'lim jarayonidagi tadbirlarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanishlariga ta'sirini o'rganish imkonini beradi.[3]

5-6 yoshdagi bolalarning o'z ona tilisini bilishlari, xorijiy tillarni bilishlari va so'z boyliklari fikrlashni rivojlantirishda muhim vositadir. So'z boyliklarini oshirish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, jumladan lug'at rivojlanishi, lingvistik moslashuvchanlik va og'zaki nutq qobiliyatlari fikrlarini ifodalash jarayonlarida seziladi.

Avvalo, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalaridagi ko'nikmalarni rivojlantirishda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi yechimlar bilan quyida tanishib chiqamiz:

Birinchi, 5-6 yoshda bolalar jarayonlarni aniq fikrlash orqali tahlil qilishga o'rgatish zarur. Bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ular moddaning tashqi ko'rinishi o'zgargan taqdirda ham miqdori bir xil bo'lishini va umumiy xususiyatlariga ko'ra obyektlarni turli toifalarga ajratish kabi tushunchalari shakllanadi. Shuningdek, jumboq va muammolarni hal qilishda bolalardan tanqidiy fikrlash talab qilinadi. Jumboqli va muammoli vazifalarni hal qilish mobaynida ularning tanqidiy fikrlashlari ham rivojlanadi. Ya'ni ochiq savollar va jumboqlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, ijodiy fikrlashlarini rag'batlantirishi va ularni bir nechta yechimlarni o'rganishga undaydi. Bolalarni moslashuvchan fikrlashga va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga undash ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda foydali bo'ladi.

Ikkinchi, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda o'yinga asoslangan ta'limdan foydalanish ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi. Chunki, bolaning psixo-fiziologik holatiga ko'ra tuzilgan o'yin bolalarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. O'yin mashg'ulotlari davomida bolalarning atrof-muhitni o'rganishlari, tasavvurlarini kengaytirishlari hamda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari maqsad qilinadi. Pedagog kadrlar o'yin mashg'ulotlarni rejalashtirayotganda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, metakognitiv va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni inobatga olgan holda rejalashtirishlari zarur. O'yinlarda ishtirok etish bolalarga guruhlarda yoki juftlikda ishlash imkoniyatlarini beradi va ularning erkin fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. O'yinlarda hamkor bo'lish orqali birgalikda o'rganish, muloqot va fikr almashish imkoniyatidan foydalanadilar. Muammolarni birgalikda muhokama qilish va hal qilish orqali bolalar bir-birlaridan o'rganishlari, fikrlashlarini kengaytirishlari va bir vaqtning o'zida xotira, e'tibor, idrok va ijro funksiyalarini rivojlantirishlari mumkin.

Uchunchidan, bolalarning metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ularning fikrlash jarayonlaridan xabardor bo'lish imkoni yaratiladi. Metakognitiv qobiliyatni rivojlantirish – bu bolalardan o'z fikrlari, strategiyalari va muammolarni hal qilish yondashuvlari haqida fikr yuritishini so'rash orqali targ'ib qilinadi. Metakognitiv jarayonda bolalar o'zlarining o'rganishlarini hamda bilish qobiliyatlarini chuqurroq tushunib yetadi, qiyinchiliklar va muammolarga duch kelganda o'z fikrlarini tahlil qilish va kuzatish yordamida ifodalaydilar. Boshqacha so'zlar bilan ta'riflaganda, o'rganish jarayonlariga o'zlari mas'ul bo'ladilar.

To‘rtinchidan, bolalarning tafakkurini rivojlanishi yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, bolalarning tafakkuri rivojlangan sari ular nazariyalarni hamda mavhum tushunchalarni tushuna boshlaydilar. Pedagog kadrlar mashg‘ulotlarga bolalarning yoshiga mos materiallar orqali vaqt, makon va raqamlar kabi oddiy mavhum tushunchalarni kiritishlari mumkin. Mashg‘ulotlarda foydalanish ko‘zda tutilgan ko‘rgazmali qurollar hamda amaliy tajribalar yordamida bolalarda aniq jismlar va mavhum tushunchalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkoni yaratiladi.

Beshinchidan, o‘z ona tilisini va xorijiy tillarni bilish va nutqda so‘z boyliklarni rivojlantirish fikrlarni aniq ifodalashda hamda tushunish qiyin bo‘lgan mavzularda savollar so‘rashda muhim rol o‘ynaydi. Pedagog kadrlar bolalarga o‘z fikrlarini erkin bayon etishlari, aniq javob olishlari uchun to‘g‘ri savollar berishlari va munozaralarda qatnashishlari uchun imkoniyat berishlari hamda so‘zga boy muhitni rag‘batlantirishlari kerak. Bolalar bilan bo‘ladigan suhbatlarda va hikoyalarni muhokamasida tushunarli atamalar va so‘z birikmalaridan foydalanish natijasida ularning so‘z boyliklari hamda fikrlash qobiliyatlarini oshirish va atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunishlarida ko‘maklashish imkoni yaratiladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Oila muhitiga va tarbiyasiga ko‘ra bolalarning dunyo qarashlari turlicha bo‘lib, har xil tezlikda rivojlanadi va ularning individual farqlari va o‘rganish qobiliyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Bolalar bilan ishlashda ularning fikrlash qobiliyatining o‘sishiga yordam beradigan, kashf qilish, tajriba o‘tkazish va o‘z tajribalaridan ma‘no yaratishga imkon beradigan qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi vazifa va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalarning yoshiga doir, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta‘lim tadbirlari, o‘qitish strategiyalari va o‘quv rejalari bolalarning psixofizilogik rivojlanishlarida juda muhimdir. Shuningdek, ta‘lim-tarbiya jarayonlarida qo‘llaniladigan turli xil yondashuvlar, eksperimental tajribalar yoki aniq pedagogik amaliyotlar ham bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida ahamiyatlidir.

Yuqorida keltirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi bolalarni metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish maktablarda davom ettirilsa, bugungi kun talabiga javob beradigan mutaxassislarni yetishib chiqishiga zamin bo‘ladi. Ko‘p hollarda boshlang‘ich ta‘limdan keyingi ta‘limning tayanch o‘rta ta‘lim bosqichida (V-IX sinflar) o‘quvchilarning fanlarni o‘zlatirishida, murakkab ilmiy matnlarni tushunishlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, ikki o‘quvchi tushunishda bir xil darajada yomon bo‘lishi mumkin, lekin o‘z tushunishining yetishmasligi haqida yaxshiroq xabardor bo‘lgan biri keyingi o‘rganish vaqtini samarali taqsimlashda yaxshiroq bo‘lishi mumkin, ya‘ni, qaysi mavzularni qayta o‘rganish haqida ko‘proq mos qarorlar qabul qilish orqali rivojlanadi. Fanlardagi ma‘lumotlarni anglashning muhim omillardan biri bu o‘z tushunishini aniq kuzatib borish qobiliyatidir. Shuningdek, o‘rganish paytida mavjud bo‘lgan ko‘rsatmalarga amal qilgan holda o‘zlarining test natijalarini taxminiy ballarini ham hisoblashni o‘rganishlari zarur. Fanlarni o‘zlashtirishda qaysi mavzularni qayta o‘rganishga qaror qilishlari o‘zlarini tartibga solish uchun asos bo‘ladi. O‘quv jarayonlarida ko‘rgazmali darslar orqali o‘quvchilarning metakognitiv qobiliyatlari fanlarni o‘zlashtirishga qanday ta‘sir qilishini ko‘rish mumkin. Diagramma, jadvallar, rasmlar va illyustratsiyalar kabi o‘quv ko‘rgazmalari fanlarda uchraydigan matnlarni tushunishda keng qo‘llaniladi, ammo ularning meta-tushunishga ta‘siri yaxshi o‘rganilmagan. Xususan, o‘quv ko‘rgazmalarining turli xil formatlari, ular

o‘qituvchi tomonidan taqdim etilganmi yoki o‘quvchi tomonidan yaratilganmi, o‘quvchilarga noyob metakognitiv ko‘rsatmalarni taqdim etishi mumkin.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida tadqiqotlar o‘tkazildi. Ularning o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni chegaraviy sonli qiymatlari va tavsifiy darajalari belgilab olingan (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarining sifatini baholash ko‘rsatkichlarini hisoblash natijalari holatini chegaraviy sonli qiymatlari va tavsifiy darajalari**

<b>№</b>	<b>Holatlar</b>	<b>Sifatini baholash ko‘rsatkichlarini hisoblash natijalari holatini chegaraviy sonli qiymatlari</b>	<b>Sifatini baholash ko‘rsatkichlarini hisoblash natijalari holatini tavsifiy darajalari</b>
1	$M_1$	$4,50 (90) \leq N_{25}^I < 5,00 (100)$	A‘lo
2	$M_2$	$4,00 (80) \leq N_{25}^I < 4,45 (89)$	Yaxshidan yuqori
3	$M_3$	$3,50 (70) \leq N_{25}^I < 3,95 (79)$	Yaxshi
4	$M_4$	$3,00 (60) \leq N_{25}^I < 3,45 (69)$	O‘rtadan yuqori
5	$M_5$	$2,50 (50) \leq N_{25}^I < 2,95 (59)$	O‘rta
6	$M_6$	$2,00 (40) \leq N_{25}^I < 2,45 (49)$	Yomon
7	$M_7$	$0,00 (0) \leq N_{25}^I < 1,95 (39)$	Juda yomon

O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishini aniqlashda empirik tadqiqotlar (so‘rovnomalar, kuzatuvlar va eksperimentlar) va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Tajriba 132 nafar o‘quvchilarini ikki guruhga bo‘lgan holda o‘tkazildi: birinchi tanlov guruh (metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan) va ikkinchi oddiy guruh (an’anaviy dars o‘tishga qaratilgan). Tanlov guruh darslarida o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘rganish jarayonlarida metakognitiv strategiyalari qo‘llanildi. O‘lchash va baholash uchun maxsus so‘rovnomalar tuzildi. Tajriba-sinovlar orqali o‘quvchilarning metakognitiv strategiyalarni qo‘llash natijalari kuzatildi va tahlil qilindi. Tajriba uchun olingan guruhda metakognitiv strategiyalar qo‘llanildi, oddiy guruhda esa an’anaviy usullar davom ettirildi. So‘rovnomalar, nazorat ishi va kuzatuvlar orqali o‘quvchilarning bilimlari va metakognitiv ko‘nikmalari baholandi. Tajriba-sinovlar davomida o‘quvchilarga metakognitiv strategiyalarni o‘rgatish uchun mavjud dasturga qo‘shimchalar kiritildi va o‘qituvchilar yordamida dars jarayonlarida qo‘llanildi. Dasturga ko‘ra o‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bo‘yicha turli mashqlarni bajarishdi. Masalan, har bir darsdan so‘ng o‘quvchilar o‘zlarini baholash va o‘z faoliyatlarini tahlil qilish uchun o‘zaro munozaralar qilishdi. Ular dars davomida duch kelgan qiyinchiliklarni va ularga qanday yechimlar topganliklarini muhokama qildilar. Ikkinchi guruh esa an’anaviy dars usullari bilan o‘qitildi va ularga metakognitiv strategiyalarni qo‘llash bo‘yicha hech qanday maxsus mashqlar berilmadi. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘z bilimlarini boshqarish ko‘nikmalarini o‘lchash uchun maxsus tayyorlangan so‘rovnomalar va kuzatuvlar asosida ma’lumotlar to‘plandi. Ushbu ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, birinchi va ikkinchi guruhlarining natijalari solishtirildi.


**O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishdagi ko‘rsatkichlari**

No	Ko‘nikma turlari	Tanlov guruh	Oddiy guruh
1	Ijodiy fikrlash	82%	60%
2	Tanqidiy fikrlash	86%	64%
3	Muammoni hal etish	90%	75%
4	Muloqot ko‘nikmalari	80%	72%
5	Bilimni baholash	85%	65%
6	Mustaqil o‘rganish	88%	60%

Takomillashtirilgan dastur – faol o‘rganish faoliyatlari bilan to‘ldirilgan bir qator mashg‘ulotlar jamlanmasidir. Maqsad o‘rganishni maksimal darajada oshirish va o‘quvchilarni o‘z o‘rganishlarini boshqarish uchun faol o‘quvchilarga aylantirishdir. Muhokamalar, qisqa yozuvlar, mavzu haqida xulosalari yoki testlar o‘quvchilarning o‘rganish darajasi haqida o‘z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin. Faol o‘quvchilarga aylangan orasida hamkorlik yoki o‘z-o‘zini boshqarish kabi samarali o‘rganish strategiyalariga yuqori darajada jalb qilish kuzatilgan. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, faol o‘rganish yondashuvi va muhiti o‘quvchilarda metakognitiv ongning rivojlanishini rag‘batlantirishga yordam berishi mumkin.

1-rasm

**O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishdagi ko‘rsatkichlari**



Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar metakognitiv strategiyalar qo'llanilgan fanlaridan ancha yuqori natijalarga erishgan. Shuningdek, murakkab masalalarni hal qilishda samarali strategiyalarni tanlash va qo'llashda yuqori qobiliyatlarini namoyish etganlar. Tanlov guruh o'quvchilari o'quv faoliyatlarida o'z-o'zini baholash va o'z bilimlarini samarali boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirgan. Statistika tahlil natijalari Tanlov guruhning oddiy guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatdi. Bu natijalar metakognitiv strategiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning fanlarni o'qitishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish o'z-o'zini anglash va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv strategiyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'rganish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Prezident Farmonida belgilangan vazifalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar va materiallarni ishlab chiqish dolzarb masala sifatida e'tirof etilgan.

Metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchilarning o'z bilimlarini anglash, ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari metakognitiv yondashuvlarni qo'llash orqali fanlarni o'zlashtirish darajasi yuqoriligini ko'rsatdi. Jumladan, bunday strategiyalar ijodkorlikni rivojlantirish, muammolarga yechim topish, o'z-o'zini baholash va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shunday ekan, ta'lim jarayonida metakognitiv yondashuvlarni keng qo'llash, bolalarning yoshiga mos materiallar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, shuningdek, otalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarib ta'limda sifat samaradorligiga erishish mumkin. Bu esa jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish va kelajak avlodning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-152-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-7128182>
2. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: Norton.
3. Xolmatova G.O. 5-6 yoshli bolalarda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari (2023).
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Berk, L. E. (2017). *Child Development* (10th ed.). Boston, MA: Pearson.
6. Woolfolk, A. (2021). *Educational Psychology* (15th ed.). Boston, MA: Pearson.
7. Bodrova, E., & Leong, D. J. (2017). *Tools of the Mind: The Vygotskian Approach to Early Childhood Education* (3rd ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson.